

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

*Usmonova Dilshodaxon Ulug'bek qizi*

*Namangan viloyati Namangan shahri 85- maktab*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari, boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot berish.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar ,innovatsiya, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyillar.

**PECULIARITIES OF THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL  
TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL**

**Abstract:** To inform about the ways of using from innovative technologies, also didactic principles of innovative technologies which can be used in primary schools' classes, the use of interactive methods in the classroom and the importance of using innovative pedagogical technologies in primary school.

**Keywords:** Interactive methods, innovation, pedagogical technology, didactic principles.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovatsion) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari Hozirgi

kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish toboro keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi vata'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya-yangilik kiritish,yaratishdir. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalarini egallash jarayonidgi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha-interaction,ya'ni inter-aro,o'zaro,asta harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat,ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Interaktiv usullarning asosiy turlari • Kognitiv usullar • O'yinlar, eksperimental faoliyat • Ishbilarmonlik o'yinlari,modellastirish • Amaliyot orqali o'qitish,bevosita faoliyat Boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari Innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari: Ilmiylik tamoyili - har qanday o'quv predmeti o'quv materiali fanning zamonaviy yutuqlarga tayanish lozimligini ko'rstadi. Bu tamoyil o'quv dasturlari, o'quv qollanma, darsliklarini yaratishda amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga ko'ra har yili fanlarning ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish talab etiladi. Loyihalash tamoyili - o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarni o'quv jarayoni grafigi, o'quv reja, fanning ishchi o'quv dasturi, fan bo'limlari o'quv maqsadlari toifalari, o'qitish jarayoni texnologiyasi egallangan bilim va malakalarni baholash mezonini yaratishni anglatadi. Tizimlilik tamoyili - o'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanaadi. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili - har bir fanni o'qitish jarayoni ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Boshqaruvchanlik tamoyili - o'quv jarayoni boshqariladigan taqdirda o'qitishning rejalashtirilgan natijasiga erishish mumkin. Qayta takrorlanish tamoyili - zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan tayyorlangan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Samaradorlik tamoyili - innovatsion texnologiyalarni o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbul hujjatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishni ko'rsatadi. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va insoniyashtirish tamoyili Ta'limning uzliksizligi tamoyili Faoliyat yondoshuvi tamoyili - ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilm talab

mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich sinflarda dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilmaxil shakllari o'qitishni takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'ringni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'ni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi. "O'z o'ringni top" metodi. Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuza tishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi. Maqsadi: o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish. Vazifasi: o'quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o'z fikrlarini isbotlashga o'rgatiladi. Masalan, Xans Kristyan Andersening "Bolalar gurungi" ertagida (2-qism) qo'llanilgan. "Arra" metodi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib "mutaxassis"ga aylanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik guruhdagi "mutaxassis"lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o'quvchilar o'zlashtirib oladilar. Maqsadi: o'quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish. Vazifasi: o'quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a'zolariga o'z fikrini tushuntirib, isbotlashga o'rgatish. Masalan, Xondamirning "Tanbeh" rivoyatida qo'llanilgan. Boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o'quvchini o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish,

ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo'lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo'lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. T.G'offorova .”BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR” “Tafakkur nashriyoti”- 2011.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.4-tom N.A.Muslimov va boshqalar.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik”.Toshkent2016,147 bet J.Yo'ldoshev,S.Usmonov,”Pedagogik texnologiya asoslari”,T.